JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.FIL.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAMRAYEVA GULMIRA TILAVNA

SHAROF BOSHBEKOVNING POETIK MAHORATI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

UO‘K: 821.512.133.09-31

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological Sciences

Xamrayeva Gulmira Tilavna
Sharof Boshbekovning poetik mahorati…….3

Хамраева Гульмира Тилавна
Поэтическое мастерство Шарофа Бошбекова……..……..26

Khamrayeva Gulmira Tilavna
The Poetic Mastery of Sharof Boshbekov……..……53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
..... 57

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.FIL.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAMRAYEVA GULMIRA TILAVNA

SHAROF BOSHBEKOVNING POETIK MAHORATI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/Fil2733 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasi (jdpu.uz)da va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali manzillarida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Hasanov Shavkat Ahadovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yo‘ldoshev Qozoqboy Boybekovich** **p**edagogika fanlar doktori, professor
	Soatova Nodira Isomitdinovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «____» _____soat_____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (99872) 226-46-56; e-mail: jdpu info@umail.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «____» _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.E.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

X.Maxammadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida, xususan, dramashunoslikda muayyan davr dramaturgiyasini poetik tahlil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dramaturglar ijodiga xos individual uslubning namoyon bo‘lish xususiyatlarini kompleks tahlil etish jahon adabiyotshunosligining muhim tadqiqot vazifalaridan sanaladi. Ayniqsa, muayyan adabiy jarayonda faol ijod qilib, janrlar modernizatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan dramaturglar adabiy merosini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida yetakchi dramaturglar ijodining milliy dramaturgiya taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash, dramatik asarlardagi obrazlarning tipologik va individual xususiyatlari, konfliktlarning badiiy-estetik funksiyasi, tragik va komik unsurlarning asar pafosini shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan, muayyan dramaturg ijodini tarixiy-adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish, uning ijodiga xos individual poetik xususiyatlarni, janr taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini hamda asarlarining badiiy-estetik o‘ziga xosligini ilmiy asosda ochib berish zamonaviy dramashunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan, adabiyot va san’at sohasini rivojlantirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Aytish mumkinki, milliy dramaturgiyamiz o‘tgan katta bir tarixiy davrning ijodiy izlanishlari, tajribalarini o‘zida mijassam etgan holda yangicha o‘zanda yuksalib bormoqda. Darhaqiqat, shitob bilan kechayotgan bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodning qalbini har qanday yot g‘oyalardan xoli asrash, o‘zlikni saqlab qolish, ma’naviy-madaniy qadryatlarimizga vorislik ruhini kamol toptirishda sahna asarlarining o‘rni beqiyos. “…Teatr san’ati va ta’lim tizimi o‘rtasida uzviy aloqalarni kuchaytirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash zaruryati”[1] milliy dramaturglarimiz ijodini badiiyat mezonlari asosida o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifasi ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2020-yilning 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2026-yil 15-yanvardagi PF-9-sonli “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ilmiy-amaliy vazifalarni ijro etishga muayyan darajada xizmat qiladi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-399. 22.11.2024.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga asosan bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida dramaturgiyaning ilmiy-nazariy asoslarini Aristotel, Forobiy, Lessing, Gegel, G.Belinskiy, G.Pospelov, V.Volkenshteyn kabi ko‘plab olimlar tadqiq etishgan[2]. O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi va dramatik turga oid dastlabki ilmiy izlanishlar jadidlar tomonidan amalga oshirilgan[3]. Milliy dramaturgiyamizning nazariy masalalari va janr taraqqiyotiga hissa qo‘shgan dramaturglar ijodini o‘rganishni B.Imomov, B.Qosimov, T.Sobirov, M.Rahmonov, M.Aliyev, N.Karimov, I.Sultonov, Sh.Rizayev, D.Quronov, I.G‘aniyev, Sh.Hasanov, D.Rahmatullayeva, S.Qodirova, V.Ahmedova, J.Islomov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin[4].

Sharof Boshbekov ijodini o‘rganish adabiyotshunosligimizda hozirgi vaqtga qadar to‘liq tizimlashtirilmagan. Tadqiqotlar asosan alohida asarlar, ularning g‘oyaviy-mazmuniy, ijtimoiy-estetik jihatlari bilan cheklangan. Xususan, H.Abdusamatov dramatik asarning janriy tabiatini nazariy jihatdan o‘rgangan bo‘lsa, Q.Yo‘ldoshev ijodkorning badiiy tafakkur va talqin masalalarini tahlil etgan. D.Quronov dramatik asarlar tahlilidagi o‘ziga xosliklarni Sharof

---

[2] Арасту. Поэтика.Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2015. – 352 б.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.; Лессинг Г.Э. Гамбургская драматургия. – Москва–Ленинград, Academia. 1936. – 518 с.; Gegel. Estetika // Sharq yulduzi 1-6-sonlar. – Toshkent, 2014.; Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1955. – 511 б.; Поспелов Г.Н. Теория литературы. Том III – Москва: Высшая школа, 1978. – 351 с.; Волкенштейн В.М. Драматургия. – Москва–Ленинград: Искусство, 1937. – 271 с.

[3] Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 320 б.

[4] Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1979. – 446 б.; Имомов Б. Ҳаёт ва драматик конфликт. – Тошкент: Фан, 1968. – 180 б.; ўша муаллиф. Ўзбек драматургиясида маҳорат масалалари (характер ва конфликт): Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 1968.; ўша муаллиф. Трагедия ва характер. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 176 б.; ўша муаллиф. Драматургик маҳорат сирлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 176 б.; Собиров Т. Давр ва драма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – 154 б.; Жалолов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – 144 б.; Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, 1986. – 408 б.; Абдусаматов Ҳ. Тарих ва бадиий талқин. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – 184 б.; ўша муаллиф. Драма назарияси.– Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – 288 б.; Алиев М. Драма ва ҳаёт. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – 167 б.; Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача ўзбек театр маданиятининг тараққиёт йўллари). – Тошкент: Фан, 1966. – 430 б.; ўша муаллиф. Ўзбек театри. – Тошкент: Фан, 1975. – 287 б.; Н.Каримов ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999 – 422 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.; Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 296 b.; Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi: Filol.fan.dokt.diss. – Toshkent, 2004. – 240 b.; o‘sha muallif. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 242 b; G‘aniyev I. Fitrat dramalarining poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 282 b; Xasanov Sh. Kinoqissalar poetikasiga bir nazar // Ilmiy axbarotnoma, Samarqand, 2020. 4-son. – B. 11-13.; Раҳматуллаева Д. XX аср ўзбек драматургияси ва театр санъатида тарихий драма: Санъатшунослик фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 330 б.; Қодирова С. Комедия санъати тарихи. – Тошкент: Санъат, 2008. – 212 б.; Axmedova V. “Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida davr va shaxs fojeasining yangicha talqinlari: Filol.fan.bo‘y.fals. dok. (Phd) diss. – Toshkent, 2021. – 150 b.; Islomov.J. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasida konflikt va xarakter yaratish mahorati: Filol.fan. bo‘y.fals.dok (PhD) diss. – Samarqand, 2021. – 142 b.

Boshbekovning “Temir xotin” tragikomediyasi misolida yoritib bergan. M.Jo‘rayev tomonidan o‘zbek komediyalarining janr xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti o‘rganilib, unda “Temir xotin” asari ham tadqiq etilgan. S.Rajabova Sh.Boshbekovning ayrim pyesalarini spektakli bilan qiyoslagan. D.Shomurodova dramalarda hayot haqiqati va talqin mahorati nuqtayi nazaridan, G.Andaniyazova va G.Ikromovalar[5] ijodkorning ba’zi pyesalarini tilshunoslik leksik-semantik va lingvopetik jihatdan o‘rgangan.

Tadqiqot dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyoti, tanqidi tarixi va badiiy mahorat masalalari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sharof Boshbekovning poetik mahorati, jumladan: yozuvchining individual uslubi, asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, xarakter yaratishdagi novatorligi hamda janr imkoniyatini kengaytirishdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dramaturgiyasini xronologik tasniflash orqali mazkur davrning badiiy taraqqiyotini o‘rganish hamda dramada badiiy haqiqatni shakllantiruvchi omillar tasnifini ishlab chiqish;

Sharof Boshbekov dramalarida janrlar transformatsiyasi, xarakterlar tipologiyasi hamda konflikt turlarini o‘rganish;

ijodkor asarlarida tragik va komik unsurlar uyg‘unligining poetik mohiyatini ochish, mikroprozaik asarlarini jahon adabiyoti kontekstida tahlil qilish;

badiiy asar tilining emotsional, xalqona o‘ziga xosligini ta’minlashda Sharof Boshbekovning lirizm va folklorizmdan foydalanish mahoratini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sharof Boshbekovning “Taqdir eshigi”, “Temir xotin”, “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?”, “Eski shahar gavroshlari” pyesalari va “Mehr va mauzer” kinoqissasi, mikroprozaik asarlari tanlangan. Shuningdek,

---

[5] Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2000 – 288 b.; Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashryot-matbaaijodiy uyi, 2018. – 504 b; Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.; Jo‘rayev M. O‘zbek adabiyotida komediyaning janr xususiyatlari va ularning tarixiyligi (“Maysaraning ishi”, “Tobutdan tovush” hamda “Temir xotin” asarlari misolida): Filol. fan. bo‘y. fals. dok.(PhD) diss.…– Jizzax, 2021.; o‘sha muallif. O‘zbek komediyalarida ijtimoiy muhit va shaxs talqini. Global transformasiyalar sharoitida ijtimoiy tadqiqotlar va zamonaviy filologiyaning dolzarb muammolari // Jizzax, 2023. – B 595–598. URL: https://inlibrariy.uz/indeks.php/compyuter-engineering/article/view/25685/26555; Shomurodova D. Sharof Boshbekov dramalarida hayot haqiqati va talqin mahorati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021. – Vol. 4, – B 279-281.; URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sharof-boshbekov-dramalarida-hayot-haqiqati-va-talqin-mahorati/pdf; Rajabova S. Jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rsatgan-komediya Sharof Boshbekov // Yevrosiyo ijtimoiy fanlar, falsafa va madaniyat jurnali. – Toshkent, 2023. – B 83-85. URL: https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/10624; Ashurova M. Pyesa va spektakl mushtarakligi va tafovutlari (Sharof Boshbekovning “Eski shahar gavroshlari” asari misolida). – Toshkent, O‘zDSMI, 2015. – 15 b; Ikromova G. Sharof Boshbekov dramalarining til xususiyati. BMI. – Farg‘ona, 2017. – 64 b; Andaniyazova G.R. Ironiya lingvopoetik hodisa sifatida (Sharof Boshbekov pyesalari misolida) // O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 765-771. URL: https://zenodo.org/records/14559211 .

qiyosiy tahlil maqsadida ijodkorning kinoroman, kinoqissa, inssenirovkalarga murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmeti. Sharof Boshbekov dramaturgiyasida poetik tizim, xarakterlar tipologiyasi, konflikt yaratish tamoyillari, tragik va komik unsurlar uyg‘unligi, yozuvchi asarlarining til xususiyatlari, badiiy tafsillarning ko‘p ma’nolik masalalarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, psixologik va statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sahna asarlarida badiiy haqiqatni shakllantiruvchi omillar tasnifi ishlab chiqilib, ularni hayotiy asosli, xayoliy asosli va an’anaviy-adabiy asosli tamoyillarga tayanib yaratilishi Sharof Boshbekov dramalari misolida isbotlangan;

Sharof Boshbekov dramalarida janrlar sintezi va modernizatsiyasi uning “Taqdir eshigi” pyesasi misolida o‘rganilib, asar minimalistik shakldagi intellektual komediya ekanligi va dramaturg pyesalarida barqaror, parallel xarakterlar, bevosita, bilvosita personajlar tipologiyasi, konflikt yaratishdagi o‘ziga xosligi aniqlab berilgan;

“Temir xotin”, “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?”, “Eski shahar gavroshlari” asarlarida fojiaviylik va kulgi bir-biriga uyg‘un estetik hodisalar ekanligi aniqlangan hamda yozuvchining mikroprozalari tahlilida lakonizm va emotsional ta’sir kuchi ilmiy tahlillarda asoslangan;

Sharof Boshbekov ijodida folklorizmlar yozuvchining maqsadiga bo‘ysindirilgani aniqlanib, lirizm asar mohiyati va qahramon holatini chuqurroq tasvirlash, milliy til esa mahalliy koloritni yaratuvchi vositalar ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dramaturgiyada badiiy haqiqatning hayotiy, xayoliy va an’anaviy-adabiy asosga tayanib yaratilishiga oid tahlillar oliy ta’lim muassasalarida “Adabiyot nazariyasi”, “Dramaturgiya nazariyasi”, “Hozirgi o‘zbek adabiyoti” fanlarini o‘qitishda qo‘shimcha ilmiy-nazariy manba ekanligi asoslangan;

ijodkorning mikroprozaik hikoyalariga doir aniqlangan lakonizm va emotsional ta’sir xususiyatlari badiiy matnni stilistik va poetik jihatdan tahlil etish metodikasini takomillashtirishga yordam berishi isbotlangan;

dissertatsiyaning “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?”, “Eski shahar gavroshlari”, “Temir xotin” tragikomediyalaridagi tragizm va komizm uyg‘unligiga oid xulosalari, dramatik asarlarni poetik tahlil qilish, konflikt va xarakter yaratish mahorati masalalarini o‘rganishda ilmiy metodik asos bo‘lib boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi maqsad va muammoning aniq qo‘yilganligi, Sharof Boshbekov va boshqa ijodkorlar asarlarining tadqiqot predmetiga muvofiqligi, ilmiy-nazariy xulosalar biografik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, psixologik tahlil usullari orqali asoslangani, ishonchli ilmiy-adabiy manbalar, internet ma’lumotlaridan ham foydalanilgani, tadqiqotning natijalari, tavsiyalari amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Sharof Boshbekov dramaturgiyasining poetik xususiyatlari, janr

transformatsiyasi va dramatik tafakkur yangilanishi haqida asosli ilmiy xulosalar bildirilgani bilan ahamiyatli. Tadqiqotda dramaturg asarlarida badiiy haqiqat talqini, konflikt qurilishi, tragikomik ifoda, lirizm va epik unsurlar uyg‘unligi, qahramon ruhiyati hamda ichki ziddiyatlarining badiiy talqini va izchil tahlili adabiyotshunoslikni ilmiy-nazariy jihatdan boyitilishiga hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyadagi nazariy umumlashmalar va xulosalardan “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi”, “Dramaturgiya nazariyasi”, “Hozirgi o‘zbek adabiyoti”, “Badiiy tahlil asoslari” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza matnlari tayyorlashda hamda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sharof Boshbekovning poetik mahoratini o‘rganish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar va metodologik yondashuvlar tahlilidan olingan ilmiy natijalardan:

Sahna asarlarida badiiy haqiqatni shakllantiruvchi omillar klassfikatsiyasi ishlab chiqilib, ularni hayotiy asosli, xayoliy asosli va an’anaviy-adabiy asosli tamoyillarga tayanib yaratilishi haqidagi ilmiy xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan F3-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 24-noyabrdagi № 04/1-5638-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyihada nazarda tutilgan vazifalarni yoritishda tadqiqot ishi zarur material vazifasini o‘tagan;

Sharof Boshbekov dramalarida janrlar sintezi va modernizatsiyasi o‘rganilib, minimalistik shakldagi intellektual komediya ekanligi va dramaturg pyesalarida barqaror, parallel xarakterlar, bevosita, bilvosita personajlar tipologiyasi, konflikt yaratishdagi individualligiga oid ilmiy xulosalaridan manba sifatida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan IL-402104474 raqamli “Bolalaradabiyoti.uz” elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratish” nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 24-noyabrdagi №04/1-5639-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarning dramaturg asarlarini badiiy tahlil qilish ko‘nikmasini oshirishga yordam bergan;

“Temir xotin”, “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?”, “Eski shahar gavroshlari” asarlarida tragizm va komizm uyg‘un estetik hodisalar ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan xulosalaridan Jizzax viloyati teleradiokanalining “Subhidam” ko‘rsatuvida 2025-yil 4-yanvardagi sonida, dramaturg tavalludining 74 yilligiga bag‘ishlangan teledasturda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 6-yanvardagi №22/13-10-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv mazmuni nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Sharof Boshbekov ijodida folklorizmlar yozuvchining maqsadiga bo‘ysindirilgani aniqlanib, lirizm asar mohiyati va qahramon holatini chuqurroq tasvirlash, milliy til esa mahalliy koloritni yaratuvchi vositalar ekanligi xususidagi xulosalaridan “Yoshlar hududi” radio jurnali dasturlarida amaliy qo‘llanildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2026-yil 6-yanvardagi №22/13-10-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yozuvchi ijodining chuqur badiiy qirralarini keng jamoatchilikka yetkazishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyot tendensiyalari”** deb nomlanib, bobning birinchi faslida *“1950-2000- yillar dramalarini dekadalar kesmida o‘rganish”* masalasi yoritilgan. XX asr boshlarida o‘zbek dramaturgiyasi milliy madaniyat va adabiyotda yuz bergan uyg‘onishlar jarayonida shakllandi. Bu jarayonda jadidchilik harakati vakillarining hissasi beqiyos. Jumladan, M.Behbudiy tomonidan yaratilgan “Padarkush” pyesasi o‘zbek dramaturgiyasi tarixida ilk yozma drama sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda yangicha dunyoqarashga ega ziyolilar millat taqdiriga daxldor ijtimoiy va ma’rifiy g‘oyalarni sahna orqali ifodalashga intildilar. V.Mahmud bu jarayonlar haqida: “Bir o‘quv-yozuv bilgan kishimiz pyesa yozishga tutundi, desak ham bo‘ladi. Chunki yangi edi; o‘ynag‘uvchida ham, tomoshachida ham ruh bor edi. Bunda bo‘laturg‘on kamchiliklarning kelgusida tuzalishiga ishonchlari kuchli edi”[6]. Mazkur ruhiy va ma’naviy muhit o‘zbek dramaturgiyasining keyingi davrlarida, taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi.

[6] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/vadud-mahmud-chin-sevish-1921

O‘zbek yozma dramaturgiyasining shakllanishi va taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda rivoj topdi. 1950-2000-yillar oralig‘idagi davrni o‘n yilliklar kesimida tahlil qilish orqali milliy sahna san’atimizning badiiy taraqqiyotini asosiy xususiyatlarini aniqlaymiz.

1950-yillarda milliy dramaturgiyamiz ijtimoiy-maishiy hayot manzaralari, folklor an’analari hamda tarixiy-biografik obrazlarni qamrab olishi bilan ajralib turadi. A. Qahhor “Shohi so‘zana” dramasida maishiy realizmning badiiy imkoniyatlari ochildi, B. Rahmonov “Yurak sirlari” asarida ijtimoiy-psixologik konfliktlar markaziy o‘ringa chiqdi, K. Yashinning “Ravshan va Zulxumor” musiqali dramasi orqali folklor an’analari yangilanib sahna talqinida namoyon bo‘ldi, S. Abdulla “Muqumiy” pyesasida tarixiy-biografik uslub dramaturgiya poetikasiga xos badiiy tamoyil sifatida o‘z aksini topdi.

1960-yillar o‘zbek dramaturgiyasida realistik va psixologik yo‘nalish yetakchi o‘rin egallab, jamiyat va shaxs munosabatlari, axloqiy-ruhiy masalalar, tarixiy shaxslarning yangicha talqini hamda satira va yumor orqali ijtimoiy illatlarni fosh etish kabi tamoyillar ustuvorlik qildi. Izzat Sultonning “Imon” dramasi ma’naviyat va halollik muammolarini yoritgan bo‘lsa, Hamid G‘ulom “Ajab savdolar” komediyasi kulgi orqali soxtalik va manfatparastlikni tanqid qildi, Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida tarixiy shaxs siymosini buyukligini insoniy zaifliklari bilan ochib berishga intildi. Erkin Vohidov “Oltin devor” komediyasida turmush va jamiyat haqsizliklarini yumor orqali tanqid etdi. Shu bilan birga, A. Qahhor, Uyg‘un, S. Abdulla, R. Fayziy, T. To‘la, O. Yoqubov kabi dramaturglarning turli janrdagi dramalari davrning dolzarb muammolarini sahnaga olib chiqib o‘zbek dramaturgiyasini mazmunan boyitdi va uning estetik ko‘lamini kengaytirdi.

1970-yillar o‘zbek dramaturgiyasida sermahsul davr sanaladi. Bu davrda axloqiy-falsafiy masalalarni chuqur yoritish va inson ruhiyatini psixologik tahlil etish tendensiyasi kuchaydi. O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” asari o‘zbek dramaturgiyasida halollik, vijdon va insoniy burch g‘oyalarini badiiy umumlashtirgan asardir. Asarda Sulaymon ota obrazi halollik va insoniy burch timsoli sifatida gavdalanadi. Sulaymon ota bilan ma’naviy tubanlashgan No‘mon Nazarov o‘rtasidagi ziddiyat asarning asosiy dramatik konfliktini tashkil etadi. Muallif pishiq obrazlar, xalqona dialoglar orqali 1970-yillar adabiy jarayonida axloqiy yuksak fazilatlarni badiiy vositalar orqali yuzaga chiqargan.

Sharof Boshbekovning ilk ijod namunasi “Taqdir eshigi” (1978) pyesasi komediya janr imkoniyatlarini boyitdi. O‘zbek dramaturgiyasida ushbu asar ilk intellektual komediyasi sanaladi. Asarda asosiy e’tibor g‘oya, tafakkur, falsafiy fikr va muloqotdagi ma’naviy ziddiyatlarga qaratiladi. Unda kulgi tashqi holatlardan emas, balki fikrlar to‘qnashuvidan tug‘iladi[7]. Bu an’ana G‘arb dramaturgiyasida, xususan B.Shou ijodida shakllangan. Asarda Erkak va Ayol obrazlari orqali zamonaviy insonning yolg‘izligi, muloqot yetishmasligi, turmushi buzilgan insonlarning iztiroblari ochib beriladi. Qahramonlarning nomlanmasligi voqeani umuminsoniy darajaga ko‘taradi. Dialoglar falsafiy mazmunga ega bo‘lib,

[7] https://www.literaturemini.com/2021/02/what-is-drama-of-ideas.html?utm_source

kulgi satirik-axloqiy ohang kasb etadi. Minimalistik shakl, semantik zich dialog va falsafiy umumlashma pyesaning poetik asosini tashkil etadi.

Mazkur o‘n yillik Hamid G‘ulom, Said Ahmad, Uyg‘un, Uchqun Nazarov kabi ijodkorlar asarlarida ijtimoiy-ma’naviy muammolar badiiy talqin qilindi. Komil Yashinning “Inqilob tongi” dramasida tarixiy shaxs obrazi yaratilgan bo‘lsa, Ibrohim Rahim dramalarida urush mavzusi va qahramonlik ruhiyati aks ettirildi. O‘tkir Hoshimov dramalarida insoniy fazilatlar, vijdon, sadoqat va hayotiy sinovlar markaziy g‘oya sifatida ilgari surildi. Bolalar dramaturgiyasida Po‘lat Mo‘min pyesalari muhim o‘rin tutdi.

1980-yillar o‘zbek dramaturgiyasi tragikomik ifoda kuchayishi, ramziylik, ochiq final va ijtimoiy-falsafiy mushohadalari bilan xarakterlanadi. Ilhom Hasanovning “Bir kam dunyo” tragikomediyasida ma’naviy tanazzul, avlodlararo uzoqlashish va insonning ichki iztiroblari tragikomik ifodada ochib berildi. Yozuvchi ochiq final orqali tomoshabinga axloqiy hukm mas’uliyatini yuklaydi. Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” dramasi tarixiy haqiqat, milliy ozodlik va tragik taqdirlarni badiiy talqin etgan muhim asar sifatida o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr dramaturgiyasining yuksak namunasi – Sharof Boshbekovning “Temir xotin” (1989) pyesasidir. Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshyev ijodkor mahorati va asar haqida shunday deydi: “Temir xotin” komediyasi badiiy saviyasi va estetik qimmati jihatdan nafaqat Sharof Boshbekov ijodi, balki umuman o‘zbek dramaturgiyasi uchun betakror hodisa hisoblanadi”[8]. Asarda sovet davri oxiridagi ijtimoiy adolatsizlik, majburiy mehnat va ma’naviy inqiroz ramziy-satirik talqinda ochiladi. Kulgi ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi falsafiy vosita darajasiga ko‘tariladi.

1990-yillar mumtoz doston poetikasi dramaturgiya qonuniyatlari bilan sintez qilindi. Shaxs va jamiyat munosabatlari, insonning ichki buzilishi, soxtalik va ma’naviy niqoblar muammosi ramz, kinoya va ruhiy psixologizm uyg‘unlashdi. Shuhrat Rizayevning “Iskandar” dramasi, Sharof Boshbekovning “Yuzsiz”.asari shular jumlasidandir.

Sharof Boshbekov bu davrda milliy sahnaga ramziylikni yangicha talqinda olib kirdi. Uning “Yuzsiz” (1993) kinosenariysida yangi jamiyat sharoitida yuzaga kelayotgan ma’naviy yuzsizlik illatini fosh etadi. Asarning ramziy nomi qahramonning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ma’naviy mohiyatini ham ifodalab beradi. Shu jihatdan, “Yuzsiz” dramasi o‘zbek dramaturgiyasida ramziylik va psixologik tahlilning badiiy sintezini namoyon etuvchi muhim asarlardan biri sifatida baholanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek dramaturgiyasi mazmun va shakl jihatidan boyib, milliy sahna san’atining badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirdi va keyingi davr dramaturgiyasi rivoji uchun zamin yaratdi.

[8] Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 504 б.

1.1.-jadval.

1950-yillar	**Ijtimoiy-maishiy, folklor va tarixiy-biografik yo‘nalishlar taraqqiy etdi**				**Asosiy asarlar va mualliflari**
	Ijtimoiy hayot manzaralari keng yoritildi	Folklor an’analari yangicha sahna talqinida namoyon bo‘ldi	Tarixiy-biografik obrazlar dramaturgiya poetikasida o‘z aksini topdi	Dramalarning poetik tili takomillashdi	A.Qahhor “Shohi so‘zana” B.Rahmonov “Yurak sirlari” K.Yashinning “Ravshan va Zulxumor” S.Abdulla “Muqumiy”
1960-yillar	**Realistik yo‘nalish ustivor bo‘ldi**				I.Sulton “Imon” H.G‘ulom “Ajab savdolar” M.Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” E.Vohidov “Oltin devor”
	Jamiyat va shaxs munosabatlari markaziy o‘rinda	Axloqiy-ruhiy masalalar chuqur yoritildi	Tarixiy shaxslar yangicha talqinda gavdalantirildi	Satira va yumor orqali ijtimoiy illatlar fosh etildi	
1970-yillar	**Milliy mayishiy hayot tasvir kuchaydi**				O‘.Umarbekovning “Qiyomat qarz” Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘oloni” Sh.Boshbekovning “Taqdir eshigi”
	Halollik, vijdon, burch g‘oyalari ilgari surildi	Milliy maishiy muammolar yumoristik usulda tanqid qilindi	Minimalizm, timsollilik va psixologik tahlil tamoyillari kuchaydi	Intellektual komediya yaratildi	
1980-yillar	**Tragikomik ifoda va ochiq final**				E.Vohidov “Istanbul fojiasi” Ilhom Hasanov “Bir kam dunyo” Sh.Boshbekov “Temir xotin”
	Fojiali va kulgili holatlar uyg‘un talqin qilindi	Ramz, kinoya va satira kuchaydi	Ochiq final orqali tomoshabinga ahloqiy hukm masuliyati yuklandi	Kulgi ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi vositaga aylantirildi	
1990-yillar	**Mumtoz doston poetikasi va ramziylik**				Sh.Rizayev “Iskandar” Sh.Boshbekov “Yuzsiz”, “Tentak farishtalar”, “Tilla bola”
	Mumtoz doston poetikasi dramaturgiya qonuniyatlari bilan sintez qilindi	Tarixiy shaxslarning narrativ bayoni va jonli tasvirlash pyesalar badiiyatida aks etdi	Soxtalik va ma’naviy niqob masalasi yoritildi	Metaforik, ramziylik talqinida sezilarli yutuqlarga erishildi	

Bobning ikkinchi fasli *“Dramaturgiyada hayotiy va badiiy haqiqatning aks etishi”* deb nomlanib, mazkur faslida dramada hayot talqin etilishi va uning yaratilish asosi haqida fikr yuritilgan.

Aristotel “Tarixchi va shoir shu bilan tafovutlanadiki, ularning biri haqiqatan bo‘lgan, ikkinchisi esa bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea haqida so‘zlaydi.”[9]. Bu fikr badiiy haqiqatning tarixiy voqelikdan farqlanishini, u muallif tafakkurining mahsuli ekanligini anglatadi. Gegel : “…tabiatdagi go‘zallikni san’at go‘zalligi bilan yonma-yon qo‘ygan holda aytish mumkinki, badiiy go‘zallik tabiatnikidan a’lodir. Chunki san’atdagi go‘zallik ruh zaminida yuzaga kelib, qayta yaratilgan

[9] Aristotel. Poetika (poeziya san’ati haqida). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980. – B. 22.

go‘zallikdir”[10] – deb ta’kidlaydi. Demak, badiiy haqiqat – hayotning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxasi emas, balki inson ruhiy va tafakkuriy tajribasidan o‘tgan estetik hodisa hisoblanadi. Dramatik asardagi hayot – bu real voqelik emas, balki ijodkor tafakkurida qayta idrok etilgan, ma’naviy mazmun bilan to‘yingan badiiy mavjudlikdir. Shu ma’noda, drama hayotni ko‘rsatmaydi, balki uni talqin etadi, ya’ni hayotning mohiyatini inson ruhi, tafakkuri va estetik ideal orqali ifodalaydi.



1.2-rasm. Adabiy asarlarda badiiy haqiqatning ifodalanishi.

Badiiy haqiqatning yaratilishi inson tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq jarayon bo‘lib, u turli manbalardan oziqlanadi. Dramaturgiyada badiiy haqiqatni shakllantiruvchi manbalarni uch asosiy turga ajratish mumkin: hayotiy, xayoliy va an’anaviy-adabiy asosli poetik haqiqat.

Badiiy haqiqatning hayotiy asos – Dramaturg drama voqeyligini hayotiydan oladi va realistik shaklda aks ettiradi. Undagi badiiy haqiqat hayotning o‘zidan oziqlanadi, dramatik ziddiyatlar esa ijtimoiy hayotda mavjud bo‘lgan real muammolar asosida yaratiladi. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” pyesasida bolalik xotiralari va qishloq hayotidan olingan voqealar badiiy haqiqatning manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Badiiy haqiqatning xayoliy asosi – dramaturgning ruhiy prizmasi orqali yaratigan badiiy haqiqat hayotiy voqelikni aks ettirgandek xulosa bersada, aslida voqeylikni ijodkor o‘ylab topadi. Bu turdagi badiiy haqiqat muallifning estetik qarashlari, falsafiy mushohadalari va ijodiy tasavvuri orqali badiiy shaklga solinadi. Masalan, Boshbekovning “Yer baribir aylanaveradi”, “Tentak farishtalar” va “Musiqa sayyorasi” asarlarida absurd, ramziy va fantastik elementlar orqali hayotiy haqiqat yangi poetik shaklga aylangan.

Badiiy haqiqatning an’anaviy-adabiy asosi – muallifning individual tasavvuri bilan bir qatorda mavjud adabiy tajribalardan, intertekstual aloqalardan va badiiy an’analardan ijodiy foydalanish natijasida vujudga keladigan estetik hodisani anglatadi. Bu turdagi badiiy haqiqatda ijodkor real voqelikni bevosita kuzatish yoki xayoliy shaklda yaratishdan ko‘ra, avvalgi adabiy manbalardagi g‘oyaviy-estetik tajribani qayta talqin qiladi. Sharof Boshbekov inssenirovka usulida M.Boyjiyev, Janni Rodari, Moler, Said Ahmad asarlarini sahnaga moslashtirib, ulardan yangi milliy-estetik mazmun yaratdi. Masalan, “So‘qmoq” va “Vafodor” pyesalari poetik asosli badiiy haqiqatning yorqin namunalari sifatida e’tirof etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sharof Boshbekov – atoqli dramaturg”** deb nomlangan. Bobning *“Dramaturgning badiiy konflikt va xarakter yaratish*

[10] Gegel. Estetika (parcha) San’at falsafasi yoxud badiiy ijod falsafasi / Abdullayev M. – Toshkent, 2014. Sharq yulduzi. 1-son, 109-bet.

mahorati" deb atalgan birinchi faslida Sharof Boshbekovning xarakterlar tipologiyasi va konflikt yaratish mahorati tahlil qilingan.

Sharof Boshbekov tanqidiy-yumoristik uslubi, kichik obrazlarida katta dardni mujassamlashtirgan, xalqchil, jasoratli dramaturg. Uning obrazlar katalogida ijtimoiy hayotning turli qatlamlaridagi kishilar: hokim, dehqon, traktorchi, mexanik, novvoy, uy bekasi, olim san'atkor, talaba o'quvchi hatto ko'cha bolalari va jinoiy to'da vakillari ham bor. Bu qahramonlar xarakterini shakllantirishda hamda asar g'oyasini tomoshabin va o'quvchiga yetkazishda Sharof Boshbekov o'zi ta'kidlagan ikki pozitsiyaga amal qiladi. Ulardan birinchisi milliy masalaga bo'lgan qat'iy munosabat. "Men o'zbek xalqini xarakterini qizg'onaman, unga boshqa xalqlarning xarakterini singishini istamayman" [11] - degan fikri orqali dramaturg o'z ijodida milliylikni asosiy prinsip sifatida belgilaydi.

Ikkinchi ijodiy pozitsiya dramaturgning o'zi ta'kidlagan "achchiqni shiringa o'rab berish[12] tamoyiliga asoslanadi. Ma'naviy va ijtimoiy fojiani bevosita keskin dramatizm bilan emas, balki komik vaziyatlar, kulgili xarakterlar hamda hayotiy dialoglar vositasida ifodalaydi. "Taqdir eshigi", "Temir xotin", "Eshik qoqqan kim bo'ldi", "Tushov uzgan tulporlar" pyesalarida bu xususiyat qahramonlar dialogi va komik ziddiyatlarda yaqqol seziladi.

Sharof Boshbekovning qahramonlari asosan o'zbek xalqining vakillari sifatida tasvirlanadi. Muallif ijodida milliy xarakter masalasi yetakchi o'rin tutib, Mariya va Maksim kabi ayrim obrazlar bundan mustasno, deyarli barcha personajlar o'zbek mentaliteti, hayot tarzi va ijtimoiy muammolari bilan bog'liq holda yaratilgan. "Temir xotin" asaridagi Qo'chqor obrazi o'sha davr insonlarining tipiklashtirilgan timsoli[13] sodda, dovdir, ayni vaqtda so'zamol, hazilkash hamda maqtanchoqlikka moyil odam[14] sifatida tasvirlangan. Boshbekovning uchta asarida ushbu obraz *"qizil chiziq"*dek ko'zga tashlanadi. "Temir xotin"da mehnatdan ezilgan, turmush tarzi og'ir, qishloq traktorchisi. Zero "traktorchi" deganning o'zi erta-yu kech qoramoyga belanib ishlagani bilan, kosasi oqarmay, hayotda paxtadan ham muhimroq narsalar bo'lishi mumkinligini xayoliga ham yaqin keltirolmay qolgan odam… [15]. U sodda va samimiy xarakterga ega bo'lsa-da, hayotiy muammolarni ongli ravishda hal etishga qodir emas.

"Musofir bo'lmaguncha" kinoqissasida Qo'chqor Qo'zivoyning akasi sifatida ishtirok etadi. Mazkur asarda ham obrazning xarakteri saqlanib qoladi. Gap-so'zlari jaydari, kulgili, xalqona ohangda bo'lib, tashqi jihatdan quvnoq ko'rinsa-da, ichki olamida iztirob yashiringan. Qo'chqorning ukasiga qayg'urishi, kelini Shafoatga dalda berishi uning insoniy fazilatlarini ochadi. Shu bilan birga, bu asarda ham ichkilikka ruju qo'yishi uning hayotiy muammolardan qochish usuli sifatida takroran namoyon bo'ladi.

---

[11] https://youtu.be/u9Syj3bGteE?si=Kke83_2BmahUTOBX
[12] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sharof-boshbekov-sof-sanat-qaygusi.html
[13] https://cyberleninka.ru/article/n/sharof-boshbekov-dramalarida-hayot-haqiqati-va-talqin-mahorati/pdf
[14] Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 416-417.
[15] Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.

“Masxaraboz” kinossenariysidagi Qo‘chqor epizodik personaj. U ho‘kiz yetaklab ketayotganida qishloqdoshlari undan ho‘kizni qayerga yetaklab ketyapsan deb so‘rashadi. “Bu ho‘kiz emas diplom, ho‘kiz Toshkentda o‘qiyapti” deb javob qaytaradi. Ushbu parchada bilimni qadrlamay faqat diplomga intilgan yigit ho‘kizga o‘xshatiladi. Bu yerda kulgi tragikomik vosita sifatida xizmat qilgan. Demak, Qo‘chqor obrazi turli asarlarda bo‘lsa-da, psixologik jihatdan izchil va barqaror tip sifatida beriladi..

Sharof Boshbekov asarlarida ayrim qahramonlar barqaror xarakter sifatida tasvirlanadi. Bunday obrazlar asar davomida o‘z mohiyatini tubdan o‘zgartirmaydi, balki boshidan oxirigacha o‘zining axloqiy-ruhiy pozitsiyasini saqlab qoladi. Sharof Boshbekov ijodida bunday xarakterlarni shartli ravishda *ijobiy barqaror* va *salbiy barqaror* toifalarga ajratish mumkin. Ijobiy barqaror xarakterlar asosan adolat, halollik, fidoyilik, insonparvarlik kabi qadriyatlarga sodiq qoluvchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan: “Musofir bo‘lmaguncha” kinoqissasidagi Ahmadbek qo‘rboshi milliy g‘urur va qat’iyat timsoli sifatida boshidan oxirigacha o‘z pozitsiyasini saqlaydi. “Tushov uzgan tulporlar” asarida Tesha halol va samimiy yigit sifatida diyonatini yo‘qotmaydi. “Musiqa sayyorasi” pyesasining bosh qahramonlari Forte va Diatonlar ham Yerlikni qutqusiga uchmaydi va qadriyatlarini asraydi.

Salbiy barqaror xarakterlar esa asar davomida o‘zining manfiy mohiyatini saqlab qoluvchi obrazlardir. Ular ichki o‘zgarishga moyil emas, aksincha, muallif tomonidan ijtimoiy illat yoki axloqiy tanazzul timsoli sifatida tasvirlanadi. Masalan: “Yuzsiz” asarida Begimqul ma’naviy tubanlik va manfaatparastlik timsoli. Fatxulla – ochko‘zlik va zulm ramzi sifatida qat’iy salbiy tip. Salohiddinov – poraxo‘r va ma’naviy sovuqqon tip. “Musiqa sayyorasi” asarida Kosmonavt butun sayyorani xarob qilib illatlar tarqatuvchi ma’naviyatsiz kishi timsoli.

Sharof Boshbekov dramaturgik mahoratining muhim jihatlaridan biri qahramonlar tabiatini faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri konflikt orqali emas, balki parallel tasvir usuli orqali ham ochib berishidir. Yozuvchi ko‘plab asarlarida bir zamon va makonda yashayotgan, biroq dunyoqarashi, tafakkuri va hayotga munosabati jihatidan keskin farqlanuvchi ikki tipni yonma-yon qo‘yadi. Ular har doim ochiq ziddiyatga kirishmasligi mumkin, ammo ularning mavjudligi o‘z-o‘zidan ichki tipologik kontrastni yuzaga keltiradi. Adabiyotshunoslikda bunday usul xarakterlarni kontrast asosida ochish yoki parallel tipologik qurilish deb talqin etiladi. Bu usul orqali muallif ijtimoiy qatlamlar, ma’naviy daraja va tafakkur tafovutini tabiiy badiiy vaziyatda namoyon qiladi. Parallel obrazlar qarama-qarshilikka kirishmasa-da, ularning yonma-yon tasviri o‘quvchi ongida tabiiy qiyos uyg‘otadi. “Temir xotin” dramasida Qo‘chqor va Olimtoy, “Musofir bo‘lmaguncha” kinoqissasida Qo‘zivoy va Fazliddin obrazlari aynan shu parallellik asosida tasvirlanadi.

Dramaturg asarlarida ayol personajlar tizimi muayyan tipologik o‘xshashliklar asosida shakllangan bo‘lib, ayniqsa o‘rta yoshdagi ayollar obrazi yetakchi badiiy qatlamni tashkil etadi. Ayol qahramonlar turli davr va ijtimoiy muhit vakili sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, ularning xarakterida umumiy hamda

individual xususiyatlar uyg‘unligi kuzatiladi. Xususan, Qumri, Shafoat, Zumrad, Ayol (“Yer baribir aylanaveradi”) kabi qishloq ayollari obrazlarida ma’naviy sobitlik, hayotiy matonat va an’anaviy qadriyatlarga sodiqlik ifodalansa, Sayohatxon, Lo‘li Maryam, Ayol (“Taqdir eshigi”), Mastura, Zulxumor, Binafsha obrazlari sinovlarga bardoshli, dadil va o‘z maqsadidan qaytmaydigan xarakter egalari sifatida gavdalanadi. Umuman, Boshbekov dramaturgiyasida ayol obrazlari jamiyat hayotini, ijtimoiy-ma’naviy muammolarni ochib beruvchi muhim badiiy-estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Sharof Boshbekov uslubiga xos xususiyatlardan biri aksariyat asarlarini tugun bilan boshlaydi. Masalan: “Temir xotin” pyesasida Qo‘chqor qo‘li bog‘liq holatda, “Charxpalak” kinoromanida Egamqul soch-soqoli o‘sgan, ochiqqan, kiyim-boshi ham bir ahvolda poyezddan tushadi. “Falakning gardishi” kinoqissasida Shavkat sheriklari bilan bir xonadonda o‘g‘rilik qilayotganda go‘dak uyg‘onib yig‘laydigan holat bilan boshlansa, “Charog‘bonlar” pyesasida terimdan qaytgan talabalar dala shiyponida kechki ovqatlanish mahali chiroq o‘chadi. Bir talaba “qorong‘ida og‘zimni topolmiyapman” degan kinoyali gapi bilan asar boshlanadi. Yuqoridagi parchalardan ma’lumki, ijodkor o‘qirman va tomoshabinni darhol ziddiyat markaziga olib kiradi. Har bir so‘z, detall, holat ramziy ma’no ifodalaydi

Dramaturgning “Mehr va mauzer” kinoqissasida konfliktning bir qancha turlari personajlar xarakterini ochishda, o‘z davrining siyosiy tuzumni fosh etishda asosiy element bo‘lib xizmat qiladi. Asar Mariya va Maksimlarning xarakterlararo ixtilofi bilan boshlanadi. Dramaturg kinoqissadagi ilk personajlararo qarama-qarshilik orqali ikkala qahramonning ijobiy va salbiy, xarakter xususiyatlarini ochib beradi. Xarakterlararo konflikt ichki, psixologik konfliktga ulanadi. Ichki konflikt syujetdagi tugunning yaratilishiga zamin bo‘ladi. Tugun noma’lum chopar Mariyani boshiga qop kiygizib olib qochganidan boshlanadi. Syujet chizig‘ida antagonistik konflikt turi hosil bo‘ladi. Kinoqissadagi antagonistik konflikt o‘z davrining real voqeyligidan olingan. Kichik detallar ham davr ruhini va ijodkorning badiiy g‘oyasini ochishga xizmat qilgan. Jumladan, Mariya qo‘rboshining qarorgohida ustunga ilingan qamchini ko‘radi. Voqealar rivojida Ahmadbek qo‘rboshining tanasidan o‘qni olib tashlash uchun unga tibbiyot spirtini ichishni taklif qiladi. Qo‘rboshi taklifni keskin rad etib, qamchini mahkam tishlab boshlayver ishorasini qiladi. Qo‘rboshining qamchini tishlab, o‘qni olishga chidashi – bu faqat jismoniy og‘riqqa chidamlilik emas. Bu imon, mardlik, g‘urur, irodani ramziy ifodasidir.

Badiiy asardagi ziddiyatli voqeani xarakteriga ko‘ra H.Muhammadaliyev dramatik, komik va tragik konfliktlarga[16] ajratadi. “Mehr va mauzer” kinoqissasida konfliktning uchala turi ham kuzatiladi. Dramatik konflik Mariya va Maksim, Mariya va Po‘latning dialoglarida namoyon bo‘ladi. Komik konflikt O‘sarqul va Maksim Mariyani izlab paranjidagi ayollarning paranjisini ochib ko‘rishi natijasida ayollar qarg‘ab va bozor ahli bozordan quvib yuborgan epizodida yuzaga chiqadi. Asardagi tragik konflikt Mariyaning o‘limi hamda Samandarxon eshon bilan

[16] Muhammadaliyev H. Ssenariynavislik mahorati. – Toshkent: Musiqa, 2009. – B. 20.

Ahmadbek qo‘rboshining Mariyaga janoza o‘qilish va o‘qilmaslik xususidagi bahslarida ko‘zga tashlanadi.

Keyingi fasl *“Tragikomediyada fojiaviylik va komizm uygunligi”* deb nomlangan. Tragikomediya kulgi va fojianing shunchaki qo‘shilishi emas, balki ularning murakkab badiiy uyg‘unligi natijasida yuzaga keladi. Bu janrda kulgi fojiani yumshatmaydi, aksincha, uning ichki ziddiyatini yanada keskinlashtiradi. Adabiyotshunos H.Umurov janr xususiyatlari haqida shunday fikr bildiradi: “Tragikomediya janrida inson fojiasini kulgili voqealar orqali ko‘rastish yetakchilik qiladi”[17]. Fikrlarini Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asari asosida dalillab, asarda ochiq fojiaviy manzaralar - masalan, lovullab yonayotgan ayollarning dod-faryodi, yetim qolgan bolalar yoki dard-u alam girdobiga irg‘itilgan ota-onalarni berilmasligini qayd etadi. Aksincha, qishloq ayolining uqubatli, og‘ir hayoti kulgili voqealar orqali tasvirlanganligini aytadi.

1985-yilda Sharof Boshbekov ikkita tragikomediya yozadi. Birinchisi, “Eski shahar gavroshlari” asarida o‘smirlarning ruhiyati, muammolari va ular tarbiyasida yo‘l qo‘yiladigan xatolarga bag‘ishlanadi. Ikkinchisi, “Eshik qoqqan kim bo‘ldi” asari bo‘lib, u antropolog olim gumanist Rahmatulla obrazining jamiyatdagi o‘ni va oilaviy hayotiga bag‘ishlanadi. Ijodkor “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?” asari janrini bevosita tragikomediya deb belgilaydi. Biroq H.Abdusamotov: “Sharof Boshbekov “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?” asarining janrini tragikomediya deb belgilagan. Lekin uning barcha tamoyillari, xususiyatlari va yo‘nalishlari bu janr talablariga javob bermaydi”[18] - deb hisoblaydi. Olimning e’tirozi shundaki, asar voqealari hikoya tarzda aytilib, butun gap sahnada ishtirok etmagan Rahmatulla ustida ketadi. Biz bu fikrga qo‘shila olmaymiz.

Pyesaning dastlabki remarkalarida fojiaviylik va komizm uyg‘unligi seziladi. Qahramonlar tavsifi Olim – ismi ham kasbi ham; Shoir – she’r yozadi; Nafisa – o‘qituvchi, lekin ko‘p o‘qishi kerak[19]. Bu kulgi ortida esa jamiyatdagi ma’naviy yuzakilik, kasbiy va axloqiy nomutanosiblik singari ijtimoiy muammolar yashirinadi.

Ekspozitsiyadagi sahna tasvirida yashirin fojiaviylik ramziy xarakterda namoyon bo‘ladi. “Uy jihozlarining aksariyati kitoblar. Xona tartibsizroq, anchadan buyon supurgi ko‘rmagan, buning ustiga nihoyatda odmi. Xonaning to‘rt burchagidan tutashtirib, xoch shaklida arqon tortilgan…”[20]. Sahna tasviridagi har bir detal ramziy ma’nosiga ega. Masalan: kitoblar– ma’rifatli kishining uyi ekanligini bildirsa, uyning nihoyatda odmiligi – ma’rifatli kishining iqtisodiy ahvolini ko‘rsatadi. Xonadagi dor ham bekorga xoch shaklida emas, xristian dinida xoch qurbonlik, qutqarilish va Iso Masihning azoblari ramzidir. Tragikomediya badiiyatida makon, ko‘pincha, qahramon ruhiyatining proeksiyasi sifatida xizmat qiladi.

[17] Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2004. – B. 241-242.
[18] Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – B. 163.
[19] Boshbekov Sh. Tanlangan asarlar: Pyesalar. – Toshkent: Sharq, 2021. – B. 244.
[20] O‘sha manba. – B. 384.

Pyesada ziddiyat an’anaviy dramaturgiyadagi kabi ochiq to‘qnashuv yoki keskin dramatik harakat orqali emas, balki dialoglar ichiga singdirilgan holda, kinoyaviy va ramziy qatlamlarda ko‘rinadi.

Pirmatning yaktak etagiga bosh suyaklarini solib chiqishi – sahnaviy detal sifatida – kuchli semantik yuklamadir. Bosh suyaklari oddiy ilmiy obyekt emas, balki insoniyat tafakkuri, e’tiqodi va ma’naviyati timsoliga aylanadi. Pirmat dastlabki qarashlarda sodda va pragmatik ko‘ringan bo‘lsa-da, voqeylik so‘ngida falsafiy fikirlaydigan, dunyoqarashi o‘zgargan kishi sifatida, barchani insofga keltiradi.Uning Olimga: “Olim odam ekansan, imon topgur. Ilm arboblari jamiki odamzotning aql chirog‘i. O‘sha chiroq xira tortsa, bizga o‘xshagan ko‘zi uncha yaxshi ko‘rmaganlar nima qiladi, imon topgur?”.

Shoirga: “Sen shoirsan. G‘azal bitasan ko‘ngildagini qog‘ozga tushirasan. Ko‘ngildagini, dildagini. Qalb deysizlarmi? Ana o‘sha qalb so‘qirlashsa, bizning holimiz ne kechadi, imon topgur?”.

Nozikka: “Sen qo‘shnisan. Jamoa… Oqibat bo‘lmasa, bu yorug‘ olamni changitib, qo‘shni yashab nima qildik, imon topgur?

Nafisaga: “Sen oila vakilasisan. Oila… Ro‘zg‘or… Zurriyot… Oilada bir-birini tushunmasa, odamzodning juft-juft bo‘lib yashashidan nima ma’ni qoladi, imon topgur?”[21], – qabilidagi murojaati faqat personajlarga emas, balki asar orqali jamiyatning har bir a’zosiga qaratigan bo‘lib, kuchli psixologik mazmunni mujassam etadi. Insonlarni diyonatli, halol bo‘lishga va har bir: do‘stlik, oila, qo‘shnichilik singari insoniy munosabatlarning qadriga yetishga da’vat etadi.

Pirmatning: “Rahmatullaga o‘xshagan odam yo‘q, hech kim unga o‘xshab yashamaydi, deb qichqirasanlar. Ha, unga o‘xshash odam kam. Ehtimol yo‘qdir ham. Nega shunday? Negaki, unday odam bo‘lishga imkon berishmaydi! Qo‘ymaysanlar-da, imon topgurlar, qo‘ymaysanlar!!!”[22] Ushbu monolog asarning markaziy g‘oyasini ochadi. Bu yerda konflikt jamiyatning o‘z idealini inkor etishi muammosiga aylanadi. Rahmatullaning noyobligi emas, balki jamiyatning uni qabul qila olmasligi fojiali.

Asarning ochiq tugashi, eshikning sekin taqillashi, janriy jihatdan muhimdir. Klassik tragediyada konflikt hal qilinadi, komediyada esa murosaga erishiladi. Bu asarda esa dramatik vaziyat yechilmaydi, balki keskinlik nuqtasida to‘xtaydi. Bu ochiqlik tragikomediya estetikasiga xosdir: tomoshabin kulgi orqali kirgan sahnadan og‘ir ichki savol bilan chiqadi. “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?” pyesasida tragik va komik unsurlar o‘zaro inkor etmay, bir-birini kuchaytiradi. Kulgi – fojianing pardasi, fojia esa kulgining ichki mazmunidir. Bu sintez asarni tragikomediya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sharof Boshbekovning “Eski shahar gavroshlari” pyesasi besh pardadan iborat bo‘lib, unda shahar bolalari hayoti yoritiladi. Asarning nomidagi “Gavrosh” so‘zi Viktor Gyugoning “Xo‘rlanganlar” romanidagi Parij ko‘chalarida yashovchi jasur, sho‘x, kambag‘al bola timsolidan olingan[23]. Ijodkor bu obrazni

[21] Boshbekov Sh. Tanlangan asarlar: Pyesalar. – Toshkent: Sharq, 2021. – B 278.
[22] O‘sha manba. – B 279.
[23] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D0%B0%D0%B2%D1%80%D0%BE%D1%88

Toshkentning Eski shahar muhiti bilan uyg‘unlashtirib, Husan, Hasan, Odil va Qizcha kabi mahalliy kolorit qahramonlarni yaratadi. Ularning kulgili, sho‘x muloqotlari tashqi komizmni, hayotiy sharoiti va ichki iztiroblari esa yashirin fojiaviy qatlamni yuzaga chiqaradi. Birinchi parda kasalxona oldidagi non sotish sahnasi orqali bolalarning tirikchilik uchun kurashi, erta ulg‘ayish majburiyati va ijtimoiy tengsizlik ko‘rsatiladi. Husan va Odilning joy talashishi bolalarcha tortishuvi kulgi uyg‘otsa-da, uning ostida yashirin tragizm mavjud. Hasan – muvaffaqiyatli, ammo ichki norozilikka ega; Qizcha – majburiy mehnat timsoli; Husan – erta ulg‘ayish fojiaviyligi; Odil – mehrsiz farovonlik iztirobi.

Pyesa quyidagi tragikomediya janriy mezonlarini to‘liq aks ettiradi: kulgi va tragizm sintezi, ko‘p qatlamli konflikt, ramziy ifoda vositalari va ochiq fojiaviy halokat o‘rniga ichki dramatizmga asoslangan yakun. Gavroshlar timsoli esa faqat sho‘x ko‘cha bolalari emas, balki turli ijtimoiy sharoit qurboni bo‘lgan avlod vakillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Sharof Boshbekovning badiiy mahorati”** deb nomlanib, *“Yozuvchi mikroprozalarining jahon adabiyoti kontekstidagi poetik tahlili”* hamda *“Sharof Boshbekov ijodida lirizm, folklorizm va xalqona uslub”* fasllarini o‘z ichiga oladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon adabiy jarayonida hajman ixcham, ammo mazmunan keng va falsafiy qatlamlarga ega bo‘lgan yangi adabiy shakl mikrohikoyalar alohida janr sifatida shakllandi. Bu hikoyalarning badiiy ijod jarayoniga kirib kelishiga asosiy sabab ijtimoiy tarmoqlar ta’labidir. Internet sahifalarida katta hajmli asarlarni o‘qish, boshqalar bilan ulashish noqulaylik tug‘diradi. Aksariyat, insonlar foydalanadigan platformalarda matn hajmida cheklovlar bor. Jumladan: Twitter – 280 belgigacha, Facebook – 63,206 belgigacha, Instagram – 2,200 belgigacha, WhatsApp – 65,536 belgigacha, Telegram – 4,096 belgili matnni kiritish mumkin.

Globallashuv sharoitida insonlarning xarakteri va dunyoqarashi ham o‘zgarib bormoqda. Ko‘pchilik kitobxonlar qisqa va psixologik ta’sir kuchi yuqori bo‘lgan asarlarga ehtiyoj bildirishmoqda. Badiiy adabiyot esa har bir davrda o‘z zamonasining badiiy tafakkurini, ehtiyojlarini inobatga olgan. Demak, jahon adabiyotida mikroprozalar zamonaviy adabiy jarayonning tabiiy mahsuli sifatida shakllandi va tez ommalashdi. Bu janr o‘zbek adabiyotida jajji, ixcham, mitti, yaproq hikoyalar deb ham nomlanadi [24].

Kichik hajimli hikoyalarning ildizlari Sharq mumtoz adabiyotiga borib taqaladi. Asarlar tarkibida uchrovchi hikoyachalarda qisqa hajm, mazmuniy zichlik va didaktik yo‘nalish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Xususan, “Kalila va Dimna”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston” asarlarida hikoyatlar orqali ixcham shaklda chuqur axloqiy-falsafiy g‘oyalar ifodalangan. Biroq mazkur asarlarda kichik hikoyalar asarning tarkibiy qismi sifatida keltiriladi va axloqiy-falsafiy g‘oyani yoritadi. Ular nasr, nazm yoki ikkalasining uyg‘unligida yozilishi mumkin. Jumladan, “Guliston” asaridan olingan: “Libosim ostida bir yaram bor edi. Har kuni ustozim: “Yarang qalay?” deb so‘rardi, lekin

[24] Ibrohimova N. Mitti hikoyalar: kecha va bugun. – Toshkent: Yangi kitob, 2018. – B. 3.

hech mahal “Yarang qayerda?” deb so‘ramasdi. Shunda ustozim ataylab shunday savol berishdan o‘zini olib qochayotganini angladim, chunki odob qoidasida kishi vujudidagi hamma a’zoning nomini ham tilga olinavermaydi. Donishmandlar deydilar: “Mulohaza qilmay savol bergan odam tahqirli javob oladi”.

Mikroprozalarning sharq klassik hikoyalardan farqli jihatlari:


- Mustaqil kichik hikoya hisoblanadi, asar tarkibida kelmaydi.
- Nasriy shaklda yoziladi.
- Mavzusi erkin didaktikadan ko‘ra falsafiy fikrlashga undaydi.
- Ba’zi shakllarida so‘z soni cheklangan (drabllarda 100tagacha so‘zdan foydalanish mumkin).
- Syujet qismlari tushiriladi, xulosa berilmaydi (mikro shakllarida).

Sharq klassik kichik hikoyalari bilan mikroproza janri qisqa hajm orqali katta mazmunni ifodalashi bilan o‘xshash bo‘lsa ham ularni bir janr deb qarash to‘g‘ri emas, balki tipologik o‘xshash janrlar deb hisoblashimiz mumkin.

Bu janr ilk marotaba fransuz adabiyotida 1975-yilda o‘rganilgan, unda *“mikrojanr”* hajmi jihatidan kattaroq *“makrojanr”* bilan taqqoslangan va ikkalasi o‘rtasidagi sezilarli farqlar aniqlangan[25]. Janrning asosiy xususiyati hajmning nihoyatda ixchamligi va mazmunning teranligidir. Mitti hikoya odatda bir voqea, bir obraz yoki bir ruhiy holat atrofida quriladi. Hikoyadagi voqealar soni ko‘p emas, syujet bir chiziqli, biroq badiiy umumlashma kuchli bo‘ladi.

Kichik nasriy shakllarni mikrohikoya va mittihikoya (minihikoya) sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ispan adabiyotshunosi Dolores Mersedes Koch “Mikrohikoyada qisqalikka erishishning o‘n usuli” nomli risolasida kichik hikoalarni ikki turini quyidagicha farqlaydi: *“Mikrohikoyada voqelik keyingi planda turadi. Yakuniy g‘oyasi odatda fikr yoki g‘oya darajasida ifodalanadi, ya’ni asarning semantik markazi xulosaviy tafakkurda jamlanadi. Minihikoya an’anaviy hikoyaning ixchamlashtirilgani bo‘lib voqea ko‘p hollarda real bo‘ladi, ya’ni unda tugun yechimi muhim ahamiyat kasb etadi*[26]. (Tarjima bizniki – G.X)

Mikroprozalar semantik jihatdan siqilgan matn bo‘lib, undagi har bir so‘z muhim ma’no yukini bajaradi. G.Marino bunday matnlarni “virusli matn kodi” sifatida talqin qiladi[27]. Fransuz olimi Roland Barthesning “Muallif o‘ladi va o‘quvchi tug‘iladi” [28] degan nazariy qarashi ham qisqa matnlarning o‘quvchi tomonidan faol talqin qilinishini izohlaydi.



3.1.-rasm. Mikroprozalar tasnifi

[25] Нурақбаева А., Мәтбек Н. Қазақ прозасындағы микрожанрлардың жанрлық ерекшеліктері. Абай атындағы ҚазҰПУ Хабаршысы «Филология ғылымдары» сериясы. – No4(90), – 2024ж. – 60 б.
[26] https://ciudadseva.com/texto/diez-recursos-para-lograr-la-brevedad-en-el-micro-relato/?utm_source=chatgpt.com
[27] Marino G. Semiotics of virality: From social contagion to Internet memes. – Signata, 2022.
[28] Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1975.

Mikrohikoya – ramziylik, falsafiylik, ma’no qatlamlarining kengligi va voqealar bayoni yo‘qligi bilan boshqa janrlardan farqlanadi. Har bir so‘z, sarlavha yoki tinish belgilariga ham ma’no yuklanadi. Yakunida yechimi yo‘qligi bilan tugashi esa o‘quvchini tasvirlanmay qolgan voqealarni o‘z idroki va saviyasi bilan to‘ldirishga undaydi.

Mittihikoya (minihikoya) – syujet juda ixcham, ba’zan bitta epizod bilan cheklanadi. An’anaviy hikoyalarga nisbatan kamroq tafsilotlarga ega, lekin asosiy g‘oyani yoki voqeani aniq ifodalaydi. Voqealar tez sodir bo‘ladi va diqqatni asosan asosiy voqea yoki g‘oyaga qaratadi. Yakuni ko‘pincha kutilmagan yo‘sinda bo‘lib, o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladi. An’anaviy hikoya voqeani aytib beradi, mini hikoya esa voqeani siqib tasvirlaydi.

Sharof Boshbekov ijodida ham kuzatiladi. Yozuvchining ayrim mikrohikoyalarida voqea emas, balki falsafiy xulosa va umumlashma ustuvorlik qiladi. Masalan, “Sen rahbarsan – men ahmoq…” yoki “Yoshlikda kambag‘allikdan uyalamiz…” kabi hikoyalarda qisqa jumlalar orqali insoniy munosabatlar va bir voqeaga yillar o‘tib turlicha munosabat bildirilishi mumkinligi haqida hayotiy falsafiy xulosa beriladi. Hikoyada qahramon yo‘q, biroq o‘quvchilarning barchasi boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan holat umumlashtirilgan.

Sharof Boshbekov ijodida mikrohikoyalar bilan bir qatorda an’anaviy hikoyaga yaqin bo‘lgan ixcham nasriy shakl – mittihikoyalar ham mavjud. “Rizq” hikoyasi ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda urush voqealari fonida ona va bola taqdiri tasvirlanadi. Hikoya xotira shaklida berilib, ikki pog‘onali rivoya (double narration) usuliga asoslanadi. *Qahraton qish. Ikki qavatli yog‘och uylar, ko‘cha to‘la murdalar... Bir uyning ikkinchi qavatiga chiqsam, latta puttalar uyumi yonida bir ayol o‘lib yotibdi... Endi o‘girilib ketmoqchi edim, o‘lik yonidagi latta uyumi qimirlaganday bo‘ldi. Ochib qarasam, yo qudratingdan, tirik chaqaloq o‘lik onasini emib yotibdi!....* Asarda tragik manzara va mo‘jiza o‘rtasidagi kontrast orqali mo‘jizaviy realizm[29] unsurlari namoyon bo‘ladi.

“Dunyo qanday go‘zal bo‘ladi?”, “G‘amxo‘rlik”, “Namoz” kabi mittihikoyalari esa insoniy qadriyatlar, mehr-oqibat va ma’naviy o‘zgarish masalalarini yoritadi. Bu asarlarda kundalik hayot voqealari orqali chuqur axloqiy-falsafiy xulosalar beriladi.

Sharof Boshbekov ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida mikroproza janrining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan. Yozuvchi mikrohikoya va mittihikoya shakllarida inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar va falsafiy umumlashmalarni minimal hajmda, ammo kuchli badiiy ta’sir bilan ifodalashga erishgan

“Sharof Boshbekov ijodida lirizm, folklorizm va xalqona uslub” faslida yozuvchining o‘ziga xos xalqona uslubini yaratishda lirizm, folklorizmlarning o‘rni tahlil qilindi.

Sharof Boshbekovning ko‘plab pyesalarida she’r, qo‘shiq, she’riy monolog yoki ritmik dialog shaklida ifodalangan nutq turlarini uchratish mumkin. Lirik ifodalar sahnadagi harakatni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi, personajlarning

[29] Zamora L. Di Giovanni W. Magical Realism: Theory, History, Community. – 1995.

ruhiy holatini ifodalashi, keskinlik va dramatizmni kuchaytirishi, dialoglarni ta’sirchan va esda saqlanishini taminlaydi. “Charxpalak”, “Falakning gardishi”, “Tushov uzgan tulporlar” va “Tentak farishtalar” kabi asarlarida lirizmdan unumli foydalangan. “Tentak farishtalar” pyesasidagi Voybolam ismli kayvani qishloq ayoli. U zax va dori sepilgan paxta dalalarida ishlashi natijasida farzandlari dunyo yuzini ko‘rmay nobut bo‘laverganiga chiday olmay ruhiy xastalar shifoxonasiga tushib qoladi. Farzandsizlik iztirobi uni marsiyalar to‘qib kuylashga, ya’ni dard-alamini qo‘shiqda ifodalashga undaydi. Shifoxonada turli vaziyatlarga mos she’rlar to‘qib kuylab yuradi. Xonadagi o‘lgan pashshalarni ko‘rib marsiya to‘qiydi.

Qayrog‘ochim qayrildi, voy bolam, voy bolam.
Onang sendan ayrildi, voybolam,voy bolam.
Nola qildim - g‘azal bo‘ldi, voy bolam, voy bolam.
Yotar joying asl bo‘ldi, Voy bolam, voy bolam.[30]

Ushbu satrlar orqali muallif dardli ona timsolini yaratgan. U ruhan ezilaverib, hatto zararli hashorat o‘limiga ham achinadigan bo‘lib qolgan. Aqlan ojiz bo‘lsa ham qalbi mehrni, ijodkorligini saqlab qolgan. Marsiya shaklidagi bu lirik parchada xalqona uslub dramatik nutqqa mahorat bilan singdirilgan.

Ko‘zlarimni o‘ydilar, voy bolam,
Birin-ketin so‘ydilar, voy bolam.
Shahid bo‘lib ketganlarni, voy bolam,
Eslamay ham qo‘ydilar, voy bolam.

Voybolamning ushbu she’rida jadidlarining qatag‘on qilinishi va ularning xotirasining o‘chirilishi kabi og‘riqli tarixiy voqeaga ishora bor.

Sharof Boshbekov ijodida folklorizmlardan unumli foydalangan. Maqol, rivoyat, afsona, qarg‘ish va olqishlarni dramatik matnga singdirish orqali milliy kolorit va tabiiylikni ta’minlaydi. “Tentak farishtalar”dagi “Majnuntol” rivoyati murakkab folklorizm namunasi bo‘lib, an’anaviy ramzni muallif g‘oyasiga bo‘ysundiradi. “Tikansiz tipratikanlar”dagi “Tipratikan” afsona pyesa nomi va g‘oyaviy mazmunini izohlovchi ramziy qatlam vazifasini bajaradi.“Yuzsiz” asaridagi “Go‘zallar yurti” haqidagi afsona murakkab folklorizm bo‘lib, tashqi go‘zallik va ma’naviy qashshoqlik ziddiyatini ochadi. Muallif folklor shakllarini bevosita takrorlamaydi, balki ularni asar ichki falsafasiga singdiradi.

Maqollar va qarg‘ishlar asarlarda xarakter yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Qahramon nutqida maqollarning tabiiy qo‘llanishi milliy mentalitetni, ayrim hollarda maqollarni teskari ishlatish orqali komik xarakter yaratiladi. Qarg‘ishlar dramatik vaziyatni keskinlashtiruvchi va xalqona emotsional fonni beruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Sharof Boshbekov xalqning turmush tarzi, axloqiy qarashlari, va xalq og‘izaki ijod an’analarini dramatik asarlarning mazmuni hamda badiiy shakli bilan uyg‘unlashtira olgan Bu ikki qatlamning uyg‘unligi muallif dramaturgiyasining poetik o‘ziga xosligini belgilaydi.

[30] Boshbekov Sh. Musofir bo‘lmaguncha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 207-208.

XULOSA

1. 1950-2000-yillar oralig‘ida o‘zbek dramaturgiyasi bosqichma-bosqich badiiy-estetik takomil jarayonini bosib o‘tdi. 1950-yillarda milliy ijtimoiy-maishiy hayot, tarixiy-biografik obrazlar va folklor an’analari asosida dramatik tur boyidi; 1960-yillarda realistik va psixologik yo‘nalish yetakchilik qilib, jamiyat va shaxs munosabatlari, axloqiy-ruhiy masalalar va satirik uslub kuchaydi. 1970-yillarda axloqiy-falsafiy mazmun, inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, minimalizm va timsollilik ustuvorlik kasb etdi. 1980-yillarda tragikomik ifoda, ochiq finalga asoslangan poetik yangilanish yuz berdi. 1990-yillar dramaturgiyasida mumtoz asarlar bilan intertekstual aloqa hamda ramz, kinoya, ijtimoiy falsafiy va ruhiy psixologizm uyg‘unlashganligi dalillandi.

2. Badiiy haqiqat – bu hayotning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmasi emas, balki ijodkor tafakkuri, davr ruhi va estetik mushohadadan o‘tgan ijodiy haqiqat ekanligi, shuningdek, dramalarda aks etgan badiiy haqiqatni yaratilish manbalarini: badiiy haqiqatning hayotiy asosi, badiiy haqiqatning xayoliy asosi, badiiy haqiqatning an’anaviy-adabiy asosi kabi turlarga ajratish mumkinligi nazariy asoslandi.

3. Komediya janri modernizatsiyasi “Taqdir eshigi” pyesasida aniqlandi. Asar minimalistik shakl, falsafiy umumlashma obrazli intellektual komediya hisoblanadi. Intellektual komediyada asosiy e’tibor g‘oya, tafakkur, falsafiy fikr va muloqotdagi ma’naviy ziddiyatlarga qaratiladi. Unda kulgi tashqi holatlardan emas, balki fikrlar to‘qnashuvidan tug‘ilishi, dialoglar qisqa, ammo semantik jihatdan zich, har bir so‘z, imo, jimlik – badiiy yuklama kasb etishi ilmiy jihatdan yoritib berildi.

4. Sh. Boshbekov o‘z ijodida ikki muhim tamoyilga qat’iy amal qiladi. Birinchi tamoyil milliy xarakter va mentalitetga xos xususiyatlarni badiiy ifodalash bilan bog‘liq bo‘lib, dramaturg o‘zbek xalqining milliy-ruhiy qiyofasini aks ettirishni ijodining asosiy mezoni sifatida belgilaydi. Ikkinchi tamoyil esa tragizm va komizmni o‘zaro uyg‘unlikda ifodalashdan iborat. Dramaturg bu yondashuvni “achchiqni shiringa o‘rab berish” tamoyili sifatida ham izohlaydi. U ma’naviy va ijtimoiy fojialarni keskin dramatik tasvirlar orqali emas, balki komik vaziyatlar, o‘ziga xos kulgili xarakterlar hamda hayotiy dialoglar vositasida badiiy talqin etishi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar dramaturg ijodining o‘ziga xosligini belgilovchi muhim badiiy-estetik tamoyillar sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

5. Dramaturg ijodida barqaror xarakterlar muhim badiiy qatlamni tashkil etadi. Bunday qahramonlar asar davomida dunyoqarashini keskin o‘zgartirmaydi, balki o‘zining axloqiy-ruhiy pozitsiyasini saqlab qoladi. Ularni shartli ravishda ijobiy barqaror va salbiy barqaror xarakterlarga ajratish mumkin. Ijobiy barqaror qahramonlar adolat, halollik va insonparvarlik kabi qadriyatlarga sodiqligi bilan ajralib tursa, salbiy barqaror xarakterlar o‘z illatlarini saqlab qolgan holda axloqiy tanazzul timsoli sifatida tasvirlanishi aniqlandi.

6. “Eshik qoqqan kim bo‘ldi?” pyesasidagi passiv qahramon usuli o‘zbek dramaturgiyasida badiiy-estetik yangilik sifatida namoyon bo‘ladi. Rahmatulla obrazining sahnada ko‘rinmasligi, biroq unga xos jihatlarni boshqa qahramonlar

nutqi orqali ochilishi jamiyatning ma’naviy qiyofasini ochiq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Asarda kulgi ustki qatlamni tashkil etsa-da, mazmunan insoniy idealning inkor etilish fojiasi aks etishi asoslab berildi.

7. Dramaturg xarakter yaratishda parallel tasvir usulidan samarali foydalanadi. Asarlarda bir zamon va makonda yashagan, biroq dunyoqarashi va hayotga munosabati jihatidan keskin farqlanuvchi tiplar yonma-yon qo‘yadi. Ular ochiq konfliktga kirishmasada, mavjudligi bilan ichki tipologik kontrastni yuzaga keltiradi. “Temir xotin” dramasidagi Qo‘chqor va Olimtoy obrazlari aynan shu parallellik asosida yaratilgani isbotlandi.

8. Sharof Boshbekovning mikro va mittihikoyalari milliy adabiyotimizda mikroproza janrining rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Ushbu asarlarning aksariyati avtobiografik ruhda bo‘lsa-da, ularga faqat esdalik sifatida yondashib bo‘lmaydi. Ularda didaktik va falsafiy fikrlar ixcham badiiy shaklda ifodalangan bo‘lib, realistik uslub, kinoya va yumor uyg‘unligi bilan ajralib turishi tahlillarda ochib berildi.

9. Dramaturgning aksariyat asarlarida syujet an’anaviy ketma-ketlikdan chekinib, voqealar tugunli vaziyatdan boshlanadi. Bunday dramatik kirish voqealarni darhol keskin nuqtadan boshlab, syujet dinamikasini kuchaytib, o‘quvchi yoki tomoshabin konflikt markaziga olib kirilishi, shuningdek, dramatik asarlarda qo‘llangan badiiy tafsillarning ko‘pma’noliligi ularning semantik qatlamini chuqurlashtirib, obraz va g‘oyaning yanada ta’sirchan ifodalanishini ta’minlashi aniqlandi.

10. Sharof Boshbekov pyesalarida folklorizmlar muhim poetik vosita sifatida qo‘llanadi. Maqollar va qarg‘ishlar oddiy folklorizm namunalari bo‘lsa, “Saxovatli kishi”, “Ikki do‘st” haqidagi ertak, “Tipratikan” hamda “Majnuntol” haqidagi afsonalar murakkab folklorizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu folklor unsurlari dramaturgning badiiy niyatiga bo‘ysundirilib, asar g‘oyasini ochish, xarakterlarni yoritish va milliy xalqona ruhni ifodalashga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.01/2025.27.12.FIL.06.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ДЖИЗАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАМРАЕВА ГУЛМИРА ТИЛАВНА

ПОЭТИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО ШАРОФА БОШБЕКОВА

10.00.14 - Узбекская литература XX века и современный литературный процесс

АВТОРЕФЕРАТ диссертации
доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Джизак - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером №B2022.3.PhD/Fil2733.

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (jdpu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Хасанов Шавкат Ахадович** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Юлдашев Козокбой Бойбекович** доктор педагогических наук, профессор
	Соатова Нодира Исомитдин кизи доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.01/2025.27.12.FIL.06.02 по присуждению ученых степеней при Джизакском государственном педагогическом университете. Адрес: 140104, г. Джизак, улица Ш.Рашидова, 4. Тел.: (872) 226-13-57, 226-21-76; факс: (872) 226-45-56; e-mail: jdpu info@umail.uz. Джизакский государственный педагогический университет. Главный учебный корпус, 2-й этаж, малый зал заседаний.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Джизакского государственного педагогического университета (зарегистрирована за № _____). Адрес: 140104, г. Джизак, проспект Ш.Рашидова, 4. Тел.: (872) 226-13-57, 226-21-76; факс: (872) 226-45-56; e-mail: jdpu@umail.uz.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____2026 года.
(Протокол реестра № _____ от «____» _____2026 года).

А.Э. Маматов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Х. Махаммадиев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

У. Косимов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении, в частности в драматургии, особое внимание уделяется поэтическому анализу драматургии определённого исторического периода. Комплексный анализ особенностей проявления индивидуального стиля в творчестве драматургов является одной из важных исследовательских задач мирового литературоведения. Особую актуальность приобретает изучение литературного наследия драматургов, активно работавших в определённом литературном процессе и оказавших непосредственное влияние на модернизацию жанров, на основе современных методологических подходов.

В мировом литературоведении определение роли творчества ведущих драматургов в развитии национальной драматургии, выявление типологических и индивидуальных особенностей образов в драматических произведениях, художественно-эстетических функций конфликтов, а также значения трагических и комических элементов в формировании пафоса произведения признаются одним из приоритетных научных направлений. В этой связи изучение творчества конкретного драматурга в неразрывной связи с историко-литературным процессом, раскрытие индивидуальных поэтических особенностей его произведений, его вклада в развитие жанра, а также художественно-эстетического своеобразия его произведений на научной основе относятся к важным задачам современного драматурговедения.

В настоящее время в стране проводятся последовательные реформы, направленные на развитие науки, литературы и искусства, а также повышение духовности народа. Национальная драматургия, вобрав в себя творческие поиски и опыт большого исторического периода, развивается в новом русле. Несомненно, в стремительном процессе современной глобализации неоценима роль сценических произведений в защите молодого поколения от любых чуждых идей, сохранении национальной самобытности и воспитании духа преемственности духовно-культурных ценностей. “Необходимость укрепления органических связей между театральным искусством и системой образования, а также поддержки научно-исследовательской деятельности" [31] изучение творчества наших национальных драматургов на основе художественных критериев является актуальной задачей нашего литературоведения.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации научно-практических задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии

[31] Mirziyoyev Sh.M. “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-399. 22.11.2024.

«Узбекистан – 2030»», от 15 января 2026 года № УП-9 «О мерах по развитию культуры чтения и повышению интереса населения к чтению книг», а также в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 марта 2020 года № 139 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности фундаментальных и прикладных исследований в области узбекского языка и литературы» и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В мировом литературоведении научно-теоретические основы драматургии исследованы такими учёными, как Аристотель, Фараби, Лессинг, Гегель, Г.Белинский, Г.Поспелов, В.Волькенштейн [32] . Первые научные исследования по формированию узбекской драматургии и драматическому жанру проведены джадидами[33]. Теоретические вопросы национальной драматургии и творчество драматургов, внесших вклад в ее жанровое развитие, освещены в научных исследованиях Б.Имомова, Б.Косимова, Т.Собирова, М.Рахмонова, М.Алиева, Н.Каримова, И.Султонова, Ш.Ризаева, Д.Куронова, И.Ганиева, Ш.Хасанова, Д.Рахматуллаевой, С.Кодировой, В.Ахмедовой, Ж.Исламова и других[34].

---

[32] Арасту. Поэтика.Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2015. – 352 б.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.; Лессинг Г.Э. Гамбургская драматургия. – Москва–Ленинград, Academia. 1936. – 518 с.; Gegel. Estetika // Sharq yulduzi 1-6-sonlar. – Toshkent, 2014.; Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1955. – 511 б.; Поспелов Г.Н. Теория литературы. Том III – Москва: Высшая школа, 1978. – 351 с.; Волкенштейн В.М. Драматургия. – Москва–Ленинград: Искусство, 1937. – 271 с.

[33] Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 320 б.

[34] Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1979. – 446 б.; Имомов Б. Ҳаёт ва драматик конфликт. – Тошкент: Фан, 1968. – 180 б.; ўша муаллиф. Ўзбек драматургиясида маҳорат масалалари (характер ва конфликт): Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 1968.; ўша муаллиф. Трагедия ва характер. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 176 б.; ўша муаллиф. Драматургик маҳорат сирлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 176 б.; Собиров Т. Давр ва драма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – 154 б.; Жалолов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – 144 б.; Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, 1986. – 408 б.; Абдусаматов Ҳ. Тарих ва бадиий талқин. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – 184 б.; ўша муаллиф. Драма назарияси.– Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – 288 б.; Алиев М. Драма ва ҳаёт. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – 167 б.; Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача ўзбек театр маданиятининг тараққиёт йўллари). – Тошкент: Фан, 1966. – 430 б.; ўша муаллиф. Ўзбек театри. – Тошкент: Фан, 1975. – 287 б.; Н.Каримов ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999 – 422 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.; Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 296 b.; Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi: Filol.fan.dokt.diss. – Toshkent, 2004. – 240 b.; o‘sha muallif. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 242 b; G‘aniyev I. Fitrat dramalarining poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 282 b; Xasanov Sh. Kinoqissalar poetikasiga bir nazar // Ilmiy axbarotnoma, Samarqand, 2020. 4-son. – B. 11-13.; Раҳматуллаева Д. XX аср ўзбек драматургияси ва театр санъатида тарихий драма: Санъатшунослик фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 330 б.; Қодирова С. Комедия санъати тарихи. – Тошкент: Санъат, 2008. – 212 б.; Axmedova V. “Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida davr va shaxs

